

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
“RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 339.13_

TO‘YCHIYEV AKMALJON ABDULATIF O‘G‘LI

**KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATIDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARNI SAMARALI QO‘LLASH YO‘LLARI
(Farg‘ona viloyati savdo tashkiloti misolida)**

70310106- Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari
mutaxassisligi bo‘yicha
Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A


Ilmiy rahbar:
i.f.d: Qo‘chqorov T.S

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

№ 11 -sonli bayonnoma “ 26 ” 04 2023 y.

Kafedra mudiri: Abdullayev M.K.



22.05.23

imzo

sana

Ilmiy rahbar: Qo‘chqorov T.S




22.05.23

imzo

sana

Talaba: To‘ychiyev A.A




22.05.23

imzo

sana

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrasida

mudiri, dotsent. M.K. Abdullayev 

“ 25 ” 05 2023 yil

Himoya 2023 yil “ 25 ” 05 soat 10⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo‘lib o‘tadi.

Аннотация

Магистрлик dissertatsiyasida raqamli iqtisodiyotda korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari hamda respublikamizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar va uni rivojlantirish yo'llari yoritilgan. O'zbekiston korxonalarida elektron tijoratni rivojlantirish va raqamli texnologiyalardan foydalanishda mahalliy kompaniyalarning o'rni bo'yicha xulosa va takliflar taqdim etilgan. Farg'ona viloyatida joylashgan "Trade Center Perfect Invest" mas'uliyati cheklangan jamiyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha muallifning taklif va tavsiyalari hamda ularni amalga oshirish yo'llari keltirilgan. Magistrlik dissertatsiyasi, shuningdek, korxonada xodimlarni boshqarish uchun muallif tomonidan ishlab chiqilgan va joriy qilingan dasturiy ta'minotni tavsiflaydi.

Kalit so'zdar: raqamli texnologiyalar, elektron tijorat, bulutli hisoblashlar, CRM tizimi, veb-sayt, onlayn do'kon, elektron marketing

Аннотация

В магистерской диссертации описаны проблемы использования цифровых технологий на предприятиях в условиях цифровой экономики, а также работы проводимые в этой области в нашей республике и пути ее развития. Представлены выводы и предложения о роли местных компаний в развитии электронной коммерции и использовании цифровых технологий на предприятиях Узбекистана. Представлены авторские предложения и рекомендации по внедрению цифровых технологий в ООО «Торговый центр Перфект Инвест», расположенном в Ферганской области и пути их внедрения. В магистерской диссертационной работе также описаны разработанное и внедренное автором программное обеспечение по управлению кадрами на предприятии.

Ключевые слова: цифровые технологии, электронная коммерция, облачные вычисления, CRM-система, сайт, интернет-магазин, электронный маркетинг.

Annotation

The master's thesis describes the problems of using digital technologies in enterprises in the digital economy, as well as the work carried out in this area in our republic and the ways of its development. Conclusions and proposals are presented on the role of local companies in the development of e-commerce and the use of digital technologies at enterprises in Uzbekistan. The author's proposals and recommendations on the introduction of digital technologies in the Trade Center Perfect Invest LLC, located in the Ferghana region, and the ways of their implementation are presented. The master's thesis also describes the software developed and implemented by the author for personnel management at the enterprise.

Key words: digital technologies, e-commerce, cloud computing, CRM system, website, online store, e-marketing

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
KELTIRILGAN JADVALLAR RO‘YXATI.....	6
KELTIRILGAN RASMLAR RO‘YXATI.....	7
KELTIRILGAN QISQARTMALAR.....	8
KIRISH	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	10
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	10
Tadqiqotning ob’ekti va predmeti.....	11
Tadqiqotning ilmiy yangiligi	11
Tadqiqot natijalarining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati	12
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	12
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	13
1.1 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	13
1.2 Mavzuga oid me’yoriy -xuquqiy xujjatlar sharhi	16
I BOB uchun xulosa	17
II BOB. METODOLOGIYA	18
2.1 Ma’lumotlarni to‘plash jarayoni.....	18
2.2 Taxlil uchun qo‘llaniladigan usullar.....	18
2.3 Tadqiqotni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar	19
2.4 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	19
2.5 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	20
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	21
3.1 O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘llari.....	21
3.2 "Perfect Invest Trade Center" kompaniyasining raqamlashtirishni rivojlantirish sohasidagi faoliyati.....	42
3.3 "Perfect Invest Trade Center" kompaniyasi faoliyatida raqamlashtirishni rivojlantirish yo‘llari.....	45
Bob bo‘yicha xulosa	58
XULOSA VA TAKLIFLAR	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	60
ILOVALAR	63

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Globalashuv sharoitida har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining shiddat bilan oʻsishi avvalo milliy iqtisodiyot tarmoqlarini axborotlashtirish va raqamlashtirish, xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar hamda moliyaviy xizmat turlarining takomillashuvi kabi omillarning taʼsiri natijasida sodir boʻladi. Oʻzbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boʻyicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Raqamli Oʻzbekiston–2030» milliy dasturi doirasida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etish asosiy vazifa sifatida koʻrilmoqda.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi, balki uning samaradorligini oshiradi”¹. Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5349 sonli Farmoni², 2018-yil 3-iyuldagi “Oʻzbekiston Respublikasida raqamli iqtisodni rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3832 qarori va 2020-yil 28 apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-4699-sonli qarorining qabul qilinishi mamlakatimizda raqamlashtirish jarayoniga alohida eʼtibor qaratilayotganligini anglatadi. Koʻrinib turibdiki, yuqorida belgilangan maqsadlarga erishishda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri boʻlib hisoblanmoqda. Ayniqsa korxonalarni rivojlantirishda

¹ Oʻzbekiston respublikasi prizidenti SH.M. Mirziyoyevning Parlamentga murojatnomasi. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidentishavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>

² Oʻzbekiston respublikasi prizidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiya sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5349 sonli farmoni.